



# СЕРВИС

№4

## ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ

# 2021



# СЕРВИС

## ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ

**Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти**

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда  
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Таҳририят ижодий жамоаси:**

**Бош муҳаррир:**

и.ф.д. **М.Э.Пўлатов**

**Бош муҳаррир ўринбосари:**

доцент **Д.Х.Асланова**

**Масъул котиб:**

профессор **М.Қ.Пардаев**

**Муҳаррир:**

Ф.А.Сафаров,

**Техник муҳаррир:**

С.А.Бабаназарова

**Корректор ва сахифаловчи:**

Ҳ.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба  
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида тарқатилиди.**

**Таҳририят манзили:**

140100, Самарқанд шаҳар,  
Амир Темур кўчаси, 9-йй,  
тел.: +998(66)233-28-38,

+998(66)233-17-88

факс: +998(366)231-12-53

эл.почта:

samisiservis@inbox.uz

**Таҳририят кенгаши раиси:**

**М.Э.Пўлатов** – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти ректори, иқтисод фанлари доктори, профессор

**Таҳририят кенгаши раиси ўринбосари:**

**Д.Х.Асланова** – СамИСИ илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректори, иқтисод фанлари номзоди, профессор

**Таҳрир кенгаши аъзолари:**

**Б.А.Бегалов** – Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика қўмитаси раиси, иқтисод фанлари доктори, профессор

**М.Қ.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.К.Ғойназаров** – иқтисод фанлари доктори, профессор.

**Д.Р.Зайналов** – СамИСИ каф.мудири, профессор, и.ф.д.

**О.М.Муртазаев** – ТДИУ Самарқанд филиали директори, иқтисод фанлари доктори, профессор

**М.Р.Болтабаев** – Ўзбекистон Давлат жисмоний тарбия ва спорт университети ректори, иқтисод фанлари доктори

**Р.Х.Эргашев** – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

**И.С.Тўхлиев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**М.М.Мухаммедов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**К.Б.Уразов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Қ.Ж.Мирзаев** – СамИСИ каф. мудири, и.ф.д., профессор

**Б.И.Исройлов** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Г.М.Шодиева** – СамИСИ профессори в.б., и.ф.д.

**Б.Абдукаримов** – СамИСИ профессори, и.ф.н.

**Б.У.Нуруллаев** – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

**С.Н.Тошназаров** – СамИСИ кафедра мудири, и.ф.д.

**Р.Н.Нормахматов** – СамИСИ профессори, т.ф.д.

**О.М.Пардаев** – СамИСИ декани, и.ф.д.

**М.Т.Алимова** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**З.Дж. Адилова** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

## МУНДАРИЖА

<b>НАЗАРИЯ ВА МЕТОДОЛОГИЯ</b>	
<b>М.Қ.Пардаев</b> Инновацион иқтисодиёт шароитида бизнес-тахлилнинг ўзига хос хусусиятлари ва таркибий тузилишининг назарий масалалари	5
<b>Д.Р. Зайналов</b> Проблемы регулирования уровня доходов населения	10
<b>М.Х.Ғаниев</b> Аҳоли даромадлари ошириш ва камбағалликни қисқартириш муаммолари	15
<b>Х.Н.Очилова, М.Қ.Пардаев</b> Таълимга ва муаллимга эътибор тараққиёт стратегиясининг муҳим омили	19
<b>ИННОВАЦИЯ ВА РАҶАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ</b>	
<b>Б.Янгибоев</b> Ахборот технологиялари ва уларнинг ривожланиш босқичлари	24
<b>О.Д.Хамракулова</b> Инновационные инвестиции – как фактор ускорения социально-экономического развития Узбекистана	28
<b>Ш.У. Ташматов</b> Рақамлаштиришнинг замонавий тенденциялари ва уларнинг иқтисодий ривожланишга таъсири	32
<b>САНОАТ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ</b>	
<b>Ф.А.Ахмеджанова</b> Тўқимачилик товарлар сифат қўрсаткичларини такомиллаштиришнинг корреляцион-регрессион модели	36
<b>А.В.Rustamov</b> Rivojlangan mamlakatlar sanoatida raqamli tranformatsiya jarayoni va uning tahlili	39
<b>ХИЗМАТ КЎРСАТИШ ВА СЕРВИС</b>	
<b>Ирисбек Иватов</b> Аҳолига хизмат кўрсатишда дехқон бозори фаолиятини ривожлантириш ва тартиблаштириш	44
<b>Ш.С.Шарифов, С.Б.Шарипов</b> Инновацион иқтисодиёт шароитида хизмат кўрсатиш корхоналари рақобатбардошлигини оширишнинг хориж тажрибаси	48
<b>М.О.Мамаюнусова</b> Инновацион иқтисодиёт шароитида хизмат кўрсатиш соҳасини ривожланти-ришда 7ИЗФ моделини қўллаб камбағалликни қисқартириш имкониятлари	53
<b>А.Н.Холиқулов Н.З.Юлдашова</b> Рақамли иқтисодиёт шароитида аросервис хизматларининг ривожлантириш йўналишлари	56
<b>Обид Мамаюнусович Пардаев</b> Коммунал хизматлар тараққиётни таъминлашда “ЗИ-3М-3Т моделидан фойдаланиш имкониятлари	60
<b>З.Ю.Аминов</b> Оила хўжалигига меҳнат хавфсизлигини таъминлаш масалалари	64

**ТУРИЗМ ВА МЕХМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ****А.Ф.Абдурахманова, Ф.Б.Ахроров**

Махаллий гастрономияни ривожлантириш орқали экотуризмда иқтисодий самарадорликни ошириш

68

**З.М.Мухаммедова**

Туризм соҳасида инновацион фаолиятни жадаллаштиришга оид тавсиялар

72

**Н.А.Рахимова**

Туризм: анализ тенденций и приимущество устойчивого туризма

75

**С.Ш.Халилов**

Миллий туризм тармоғида жойлаштириш воситаларини лойиҳалаштиришни бошқариш

79

**U. Ostonov**

Organizational and economic mechanisms for supporting rural tourism by the government in general

84

**М.Э.Аҳтамова**

Самарқанд вилоятида экотуризмни ривожлантириш стратегияси

88

**S. Turabekov**

The relationship between the development of tourism services and employment

91

**Б.Р. Пардаев**

Туризм соҳасида инновацион фаолият хавфсизлигини ташкил қилиш ва бошқариш йўллари

97

**М.Х.Хамитов**

Туризм соҳасини ривожлантиришда меҳмонхона хўжаликларининг ўрни ва ривожланиш истиқболлари

100

**КИЧИК БИЗНЕС ВА ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИК****Б.Ш.Хусанов**

Влияние предпринимательства на сокращение масштабов нищеты в динамично развивающихся условиях

105

**Ш.С.Олтаев**

Махалла мажмуасини қуриш ва оила тадбиркорлигига инвестициялар жалб этишдаги муаммолар ва ечимлар

109

**Б.Б.Мирзахоликов**

Основные направления повышения эффективности механизма государственно-частного партнёрства в сфере деятельности субъектов малого бизнеса и частного предпринимательства

112

**L.B.Navruz-zoda, F.K.Saidova, M.A.Rajabova**

Oilaviy korxonalarda moliyaviy holat ko'rsatkichlarining samaradorligini baholashning innovatsion yo'llari

117

**Д.Р.Махмудова**

Тадбиркорлик ва бизнесни илмий англаш .(хориж олимларининг тадқиқотлари асосида). (1-мақола)

121

**Л.У.Махмудов**

Кичик тижорат корхоналарида электрон тижорат тизимини шакллантиришнинг концептуал модели

127

**Д.Р. Рафеев**

Тадбиркорлик - иқтисодиётимиз таянчи

130

**МОЛИЯ ВА БАНК ХИЗМАТЛАРИ****Р. Мусаев**

Иқтисодиётни солиқлар орқали тартибга солиш механизми моҳияти

135

<b>Л.Ш.Тошназарова</b> Ўзбекистон миллий сугурта бозори: ҳозирги ҳолати ва ривожлантириш билан боғлиқ муаммолар	138
<b>Х.Т.Кадирова</b> Рынок государственных ценных бумаг и перспективы его развития	143
<b>А.М.Каримова</b> Пути совершенствования кредитной поддержки развития туристических предприятий	147
<b>С.Б.Курбанова</b> Молиявий муносабатларни ривожлантиришда молиявий институтлардан фойдаланиш аҳамияти	152
<b>ИНВЕСТИЦИЯ</b>	
<b>А.Бектемиров</b> Тижорат банкларининг инвестицион фаолиятни такомиллаштириш йўллари	157
<b>БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ ВА АУДИТ</b>	
<b>В.Х. Qilichov, A.N.Xoliqurov</b> Xizmat ko'rsatish sohasida boshqaruv samaradorligining omilli tahlili	162
<b>Т.И.Яхёев</b> Курилиш корхоналарида молиявий ҳолат таҳлилини амалга оширишда услубий ёндашувлар	165
<b>Ш.Ш.Тураев</b> Адвокатлик тузилмалари томонидан амалга ошириладиган бюджет тўловлари ва хисобини юритишнинг ўзига хос хусусиятлари	168
<b>ТАЪЛИМ, КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА ПЕДАГОГИКА</b>	
<b>С.М. Бузрукхонов,</b> Инновацион ривожланиш шароитида инсон капитали сифатини мустаҳкамлаш ва малакали кадрлар тайёрлашнинг назарий асослари	174
<b>Х.Х.Бердиев</b> Кадрлар тайёрлашда “Девони ҳикмат” асарининг ўрни	181
<b>S.B.Kipchakova</b> Ways of developing the psychological competence of teachers in higher education	184
<b>У.Х.Худайбердиев, Ҳ.Н.Очилова</b> Республика олий таълим тизимидағи айрим муаммолар ва уларнинг ечими тўғрисида	187
<b>Т.К.Mardiev, М.В.Karimova</b> Ingliz va o'zbek tillarida inson tuyg'ularining lingvomadaniy jihatdan verballahushi	190
<b>О.Ч.Пардаев</b> Халқ таълимида хавфсизлигини таъминлаш жараёнларини рақамлаштиришдаги хусусиятлар	193
<b>АТАМАЛАР ТАЪРИФЛАРИ</b>	
<b>М.Қ.Пардаев</b> Кредит-модул тизимиға оид атамалар таърифлари	198

<p style="text-align: center;"><b>B.Mirzaxolikov</b></p> <p><b>Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati sohasida davlat-xususiy sheriklik mexanizmi samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari</b></p> <p><b>Annotatsiya:</b> maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishning Qonunchilik asoslarini takomillashtirish masalalari ko'rib chiqiladi. O'zbekiston Respublikasining "Kontsessiyalar to'g'risida" gi qonuni va "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida" gi qonuni tahlil qilinib, ularni yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar berildi.</p> <p><b>Kalit so'zlar:</b> xususiy tadbirkorlik, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik subyektlari, davlat-xususiy sheriklik, kontsessiyalar, agentlik, xavf, tender, xususiy hamkor, xususiy investor, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmi, loyiha, mulk, mulk komplekslari, jamoat infratuzilmasi, loyihalash, qurilish, yaratish, yetkazib berish, moliyalashtirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiya qilish, ekspluatatsiya.</p>	<p style="text-align: center;"><b>B.Mirzakholikov</b></p> <p><b>The main directions of increasing the effectiveness of the mechanism of public-private partnership in the field of small business and private entrepreneurship</b></p> <p><b>Abstract:</b> the article discusses the issues of improving the legislative framework for the development of public-private partnership in the field of small business entities and private entrepreneurship. The law of the Republic of Uzbekistan "On Concessions" and the law "On public-private partnership" are analyzed, proposals for their further improvement are given.</p> <p><b>Keywords:</b> private entrepreneurship, small business, private business entities, public-private partnership, concessions, agency, risk, tender, private partner, private investor, financial support mechanism, project, property, property complexes, public infrastructure, design, construction, creation, supply, financing, reconstruction, modernization, operation.</p>
--	---

**L.B.Navruz-zoda** – BuxDU, “Servis sohasi iqtisodiyoti” katta o’qituvchisi

**F.K.Saidova** – BuxDU, “Servis sohasi iqtisodiyoti” o’qituvchisi

**M.A.Rajabova** – BuxDU, “Servis sohasi iqtisodiyoti” o’qituvchisi

### OILAVIY KORXONALARDA MOLIYAVIY HOLAT KO'RSATKICHLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INNOVATSION YO'LLARI

<p><b>Annotasiya:</b> Maqolada oilaviy korxonalar va ularning moliyaviy holatini ifodalovchi ayrim ko'rsatkichlarni aniqlash yo'llari tahlil qilingan. Unda oilaviy korxonalarning moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari, avtonomiya ko'effisiyenti, moliyaviy barqarorlik koeffisiyenti, shaxsiy mablag'lari koeffisiyentlarini aniqlash yo'llari aniq formulalar orqali, jadvallarda aks ettiriligan.</p> <p><b>Kalit so'zlar:</b> Oilaviy korxonalar, moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari, avtonomiya ko'effisiyenti, moliyaviy barqarorlik koeffisiyenti, shaxsiy o'z mablag'lari koeffisiyenti, SWOT tahlil, PEST tahlil.</p>
--

**Kirish.** Bozor iqtisodiyoti sharoitida mulkning turli shaxslarga mansubligi ishlab chiqarish, tovarlarni sotish, ish bajarish va xizmat ko'rsatishda erkin raqobatning hukm surishiga asos bo'ladi. Bu esa o'z navbatida har bir korxona va firmaning yashovchanligini o'zini o'zi ta'minlash zaruriyatini tug'diradi. Bularni amalga oshirish faqat tahlilni to'g'ri amalga oshirish orqali erishish mumkin. Shu vaqtga qadar iqtisodiy tahlil yetarli darajada rivojlanib o'zining mazmuni, predmeti va uslubiga ega bo'lgan. Ammo uning asosiy qismi bo'lgan moliyaviy tahlilga deyarli ahamiyat berilmadi, chunki bunga zaruriyat ham yo'q edi. Hozirda Respublikamizda keskin raqobat kurashi, texnologik o'zgarishlar, iqtisodiy axborotga ishlov berishning kompyuterlashtirilishi kabi omillarning kuchayishi, davom ettayotgan inflysiya sharoitida foiz stavkalari va valuta kurslarini o'zgartirib soliq qonunchiligidagi to'xtovsiz yangilanishlar zamonaviy bozor munosabatlarini shakllantirish xususiyatlari hisoblanadi.

**Mavzuga doir adabiyotlar tahlili:** Ushbu mavzuda Y. Yergeshev<sup>1</sup>., A.V.Vahobov<sup>2</sup>., G'.A.Ibragimov., U.G.Yakubov., M.Y.Rahimov<sup>3</sup>., kabi olimlarning korxonalar, iqtisodiyot subyektlarining iqtisodiy va moliyaviy tahliliga bag'ishlab darsliklar, o'quv qo'llanmalar, boshqa o'quv va ilmiy risolalar yo'zganlar. Ammo ushbu asarlarda moliyaviy faoliyat

<sup>1</sup> Yergeshev Ye."Iqtisodiy va moliyaviy tahlil" T.2005 y.Darslik.345 b

<sup>2</sup> Vahobov A.V.,Ibragimov G'.A.,U.G.Yakubov."Iqtisodiy tahlil va audit" T.2015 y.Darslik.367 b

<sup>3</sup> Raximov M.Yu."Moliyaviy tahlil-2" T.2003 y.O'quv qo'llanma.166 b

ko'rsatkichlarining tahlili umumiy holatda keltirilgan, aniq bir korxona faoliyatasi asosida ma'lumotlar to'liq aks ettirilmagan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot jarayonida taqqoslash, trend tahlili, gorizontal tahlil, vertikal tahlil, qiyosiy tahlil, moliyaviy koeffisiyentlar tahlili va omilli tahlil hamda iqtisodiy tahlilning an'anaviy usullaridan qo'llanildi.

**Tahlil va natijalar.** Maqolada oilaviy korxonalar moliyaviy holat ko'rsatkichlarining samaradorligini baholash bilan bog'liq nazariy va amaliy ma'lumotlari tahlil qilindi, o'rganildi, masalani to'la to'kis yoritib berishda bevosita iqtisodiy tahlilning an'anaviy usullari bilan birgalikda marketingning innovatsion tadqiqot usullaridan foydalanishga ham harakat qilindi. Birinchi navbatda davlatimiz tomonidan oilaviy korxonalarini tashkil etish, va faoliyatini yuritish uchun qabul qilingan qonunlar va qarorlarni o'rganib chiqildi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi 2012 yil 12 martda qabul qilingan va 23 martda senat tomonidan ma'qullangan qonunga muvofiq, "Oilaviy korxona uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir. Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilarining shaxsiy mehnatiga asoslanadi. Oilaviy korxona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir" deb yuritiladi.

Oilaviy korxona faoliyatini faqat yuridik shaxs tashkil etgan holda amalga oshirishi mumkin. Oilaviy korxona o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'lishi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

Oilaviy korxona o'z majburiyatları bo'yicha qonunga muvofiq undiruv qaratilishi mumkin bo'lgan o'ziga tegishli barcha mol-mulk bilan javob beradi.

Maqolada oilaviy korxonalar moliyaviy faoliyatini baholashda «Komfort tekstil» oilaviy korxonasi misolida moliyaviy tahlil amalga oshirildi va korxonadagi moliyaviy barqarorlik darajalarini baholashda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanildi.

1. Avtonomiya koeffitsienti;

Ma'lum bir vaznni ko'rsatadi. O'z mablag'larining korxona resurslari umumiy miqdorida qancha ulushda bo'lishini ifodalaydi.

2. Moliyaviy barqarorlik koeffitsienti;

Korxona majburiatlarning qaysi qismi kompaniyaning o'z kapitali tomonidan qaytarilishi mumkinligini ko'rsatadi. Korxona qarzining umumiy miqdorida o'z mablag'lari ulushini ko'rsatadi

3. Shaxsiy o'z mablag'lari koeffitsienti;

Korxona o'z mablag'larining harakatchanligi darajasini ko'rsatadi.

4. Korxona foya miqdorining tarkibi;

5. Korxonada rentabellik koeffisiyentlarining tarkibi.

Avtonomiya ko'effisiyentini aniqlash uchun korxona o'z resurslari summasini jami resurslar summasiga nisbi olinadi. Moliyaviy avtonomiya - bu korxonaning yoki jismoniy shaxsning o'z maqsadlarini qondirish uchun birovning puliga bog'liq bo'limaslik qobiliyatidir. Iqtisodiy ko'rsatkichlar bizga buxgalteriya vositasi sifatida xizmat qiladi, boshidan "murakkab" bo'lishi mumkin bo'lgan iqtisodiy holatlarni tahlil qiladi. Shunday qilib, bir qarashda hisoblab chiqilayotgan narsa qanchalik qulay yoki noqulay ekanligini ko'rish mumkin. Ko'rsatkichlarning birligi 0 va 7 birliklar o'rtasida bo'lsa, eng odatiy va eng maqbul qiymat hisoblanadi, natija 3,6% ga ko'payadi.

«Komfort tekstil» oilaviy korxonasining moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari tahlili quyidagicha o'zgargan. O'z mablag'lari manbalari hisobot davri boshiga kelib, 75877 m.s. ga, hisobot davri oxiriga kelib 78643 m.s. ga teng bo'lib, 3,6% ga ko'paygan. Korxonada joriy majburiyatlar summasi hisobot davri boshiga 96946 m.s.ga, hisobot davri oxiriga kelib esa 249152 m.s. ga teng bo'lib, natijada bu ko'rsatkich 157% ga o'sishi kuzatilgan.

1-jadval

**«Komfort tekstil» oilaviy korxonasining moliyaviy barqarorlik ko’rsatkichlari tahlili  
(m.s.)**

No	Ko’rsatkichlar	Hisobot davri boshiga	Hisobot davri oxiriga	O’zgarish, % da
1	O’z mablag’lari manbalari	75877	78643	103,6
2	Joriy majburiyatlar	96946	249152	257
3	Korxonaning o’z resurslari	71877	71877	100
4	Korxona jami resurslari	172823	327795	189,7
5	Avtonomiya koeffitsienti	0,41	0,21	51,2
6	Moliyaviy barqa-rorlik koeffitsienti	0,78	0,031	3,97
7	Shaxsiy o’z mablag’-lari koeffitsienti	0,43	0,23	53,4

“Komfort tekstil” oilaviy korxonasining jami resurslari hajmi hisobot davri boshiga kelib, 172823 m.s. ga, hisobot davri oxiriga kelib esa 327795 m.s. ga teng bo’lgan. Natijada bu ko’rsatkich 89,7% ga oshgan.

Korxonada moliyaviy barqarorlik ko’rsatkichlari tarkibi bo’yicha o’zgarishlar ko’rib chiqildi.

Avtonomiya koeffisienti hisobot davri boshiga 0,41 birlikka, hisobot davri oxiriga kelib, 0,21 birlikka teng bo’lib, 48,8% ga kamaygan.

Moliyaviy barqarorlik koeffisiyenti hisobot davri boshiga 0,78 birlikka, hisobot davri oxiriga kelib esa 0,031 birlikka ega bo’lib, 96,03 birlikka pasaygan. Shaxsiy o’z mablag’lari koeffisiyenti hisobot davri boshiga 0,43 birlikka, hisobot davri oxiriga kelib 0,23 birlikka teng bo’lib, natijada bu ko’rsatkichlar 46,6% ga kamaygan. Tahlil natijalaridan shuni ko’rish mumkinki, “Komfort tekstil” oilaviy korxonasida moliyaviy ko’rsatkichlarning barchasi tubdan pasayishi kuzatilgan. Bunga asosiy sabab qilib, o’z mablag’lari manbaining 3,6% ga ko’payganligidir, shunga qaramasdan joriy majburiyatlar summasining 157% oshib ketganligi, lekin o’z mablag’lari manbai summasining 3,6% ga juda kam miqdorda ko’payganligidir.

2-jadval.

**«Komfort tekstil» oilaviy korxonasining rentabellik ko’rsatkichlari tahlili (m.s.)**

Ko’rsatkichlar	Hisobot davri boshiga	Hisobot davri oxiriga	O’zgarish, % da
Maxsulotni sotishdan olingan sof tushum, m. s.	1911065	4521106	236,57
Sotilgan maxsulotni ishlab chiqarish xarajatlari, m. s.	1600582	4171736	260,638
Sotishdan olingan foyda, m. s.	310483	349370	112,524
Sof foyda, m. s.	4000	6766	169,15
Asosiy vositalarning O’YQ, m. s.	78525	78196	99,58
Aylanma mablag’larning O’YQ, m. s.	94298	249599	264,691
Korxona mulki, m. s.	172823	327795	189,67
O’z mablag’lari, m. s.	75877	78643	103,64
Qarz mablag’lari, m. s.	96946	249152	257,0008
Maxsulot rentabelligi, %	16,2465	7,7275	47,564
Asosiy vositalar rentabelligi, %	5,0939	8,6526	169,861
Aylanma mablag’lar rentabelligi, %	4,2418	2,7107	63,9
Ishlab chiqarish xarajatlari rentabelligi, %	0,2499	0,1621	64,86
O’z mablag’lari rentabelligi, %	5,2716	8,6034	163,2
Jami mulk rentabelligi, %	2,3145	2,064	89,17
Umumiy rentabellik, %	2,3	2,06	89,17
Qarz mablag’lari rentabelligi, %	4,126	2,7156	65,81

«Komfort tekstil» oilaviy korxonasining rentabellik ko’rsatkichlari tahlili quyiagicha bolgan.

Mahsulotni sotishdan olingan sof tushum qiymati hisobot davri boshiga 1911065 m.s. ga, hisobot davri oxiriga kelib esa 4521106 m.s. ga teng bo`lib natijada bu ko`rsatkich 136,6% ga oshgan.

“KOMFORT TEKSTIL” oilaviy korxonasining sotilgan mahsulotni ishlab chiqarish xarajatlari hisobot davri boshiga 1600582 m.s. ga, hisobot davri oxiriga kelib 4171736 m.s. ga teng bo`lgan va 160,6% ga ko`paygan. Oilaviy korxonaning sotishdan olingan foyda summasi hisobot davri boshiga kelib 310483 m.s. ga, davr oxirida esa 349370 m.s. ga yetgan. Natijada bu ko`rsatkich 12,5% ga ko`paygan. Korxona hisobot davri boshiga kelib 4000 m.s. lik, hisobot davri oxiriga kelib esa 6766 m.s. lik sof foydaga erishgan.

Korxonada asosiy vositalarning o`rtacha yillik qiymati hisobot davri boshiga 78525 m.s. ga, hisobot davri oxiriga kelib 78196 m.s. ga teng bo`lgan. Natijada qiymat 0,5% ga kamaygan. Korxonada aylanma mablag`larning o`rtacha yillik qiymati hisobot davri boshiga kelib 94298 m.s. ga, hisobot davri oxiriga kelib esa 249599 m.s. ga teng bo`lgan. Natijada bu ko`rsatkich 69,7% ga oshgan.

Korxonada jami mulki davr boshiga 172823 m.s. ga davr oxiriga 327795 m.s. ga teng bo`lgan. Natijada korxona mulki 89,7% ko`paygan. Korxonaning o`z mablag`lari davr boshiga 75877 m.s. ga davr oxiriga 78643 m.s. ga teng bo`lgan. Natijada bu ko`rsatkich 3,64% ko`paygan. Korxonada qarz mablag`lari davr boshiga 96946 m.s. ga davr oxiriga kelib 249152 m.s. ga teng bo`lgan. Natijada bu ko`rsatkich 157 % ga oshgan.

«Komfort tekstil» oilaviy korxonasining mahsulot rentabelligi ko`effisiyenti davr boshiga 16,2% ga davr oxiriga kelib 7,7% ga teng bo`lgan. Natijada bu ko`rsatkich 47,5% ga oshgan. Korxonaning asosiy vositalar rentabelligi ko`effisiyenti davr boshiga 5,09% ga davr oxiriga esa 8,6 % ga teng bo`lgan. Natijada bu ko`rsatkich 63,9% ga oshgan. Korxonaning ishlab chiqarish xarajatlari rentabelligi davr boshiga 0,23 % ga davr oxiriga 0,16 % ga teng bo`lgan. Natijada bu ko`rsatkich 35,2% ga kamaygan.

«Komfort tekstil» oilaviy korxonasining o`z mablag`lari rentabelligi davr boshiga 5,2 m.s. ga davr oxiriga 8,6 m.s. ga teng bo`lgan. Natijada bu ko`rsatkich 63,2% ga oshgan. Oilaviy korxonaning jami mulk rentabelligi koeffisiyenti davr boshiga 2,3 % ga davr oxiriga 2,06 % ga teng bo`lgan. Natijada bu ko`rsatkichlari 10,9 % ga kamaygan.

### 3-jadval.

#### «Komfort tekstil» oilaviy korxonasining SWOT tahlili

Kuchli tomonlar	1. Oilaviy korxona raqobatchisi «Logistic mobile» korxonalar tarmog’iga nisbatan kuchli tomoni bu uning yengil sanoat sohasida 30 yildan ortiq vaqt davomida faoliyat yuritishi tashkil qilish yo’lga qo’yilgan. 2. Oilaviy tadbirdorlikda xususiy biznesni erkin holda tashkil qilishda va chet ellik savdo hamkorlariga egaligi orqali samaradorlikka erishish mumkin.
Kuchsiz tomonlar	1.Oilaviy korxona raqobatchilarga nisbatan yil davomida mahsulot ishlab chiqarish jarayonining nisbatan mavsumiyligi. 2.Maxfiy ma’lumot berish natijasida raqobatchilarga (“Logistic mobile”) ma’lumotlarni yo’qotish xavfi.
Imkoniyatlar	1. Viloyatning tuman va shaharchalarida o’z filiallarini ochish imkoniyatining mavjudligi 2. Korxona mahsulotlariga bo`lgan talabning yildan yilga oshib borishi. 3. Korxonada ishlab chiqariladigan mahsulotlarning nisbatan boshqa korxona mahsulotlariga nisbatan arzonligi va sifatliligi
Xavf-xatar	1.Tijorat sirlarni oshkor qilishi yoki boshqa tadbirdorlarga o’tib ketishi. 2.Tadbirkor tomonidan shartnomalar bekor qilinishi xavfi;

Oilaviy korxonaning umumiyl rentabellik koeffisiyenti davr boshiga 2,3 % ga davr oxiriga 2,06 % ga teng bo`lgan. Natijada bu ko`rsatkichlari 10,9 % oshgan. Korxonaning qarz mablag`lari rentabelligi koeffisiyenti davr boshiga 4,1 % ga davr oxiriga 2,7 % ga teng bo`lgan. Natijada bu ko`rsatkichlari 34,2% ga kamaygan.

Korxona faoliyatini umumiyl xulosa qilish jarayonida maqolada keltirilgan tahlil ma’lumotlaridan va marketingning innovatsion taqqiqt usullaridan foydalanib, SWOT tahlil va PEST tahlil o’tkazildi.

### 4-jadval.

#### «Komfort tekstil» oilaviy korxonasining PEST tahlili

P - Siyosiy omili	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.09.2019 yildagi "Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi <u>PQ-4453</u> -son qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq shu faoliyat bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlarga 2020 yil 1 yanvardan quyidagi soliq imtiyozlari joriy etildi: <ul style="list-style-type: none"> <li>- hisobot davri natijalari bo'yicha yalpi tushumning umumiylajiga hajmida tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlarining eksporti 60% dan kam bo'lmasan eksport ulushiga ega bo'lgan korxonalar 2023 yil 1 yanvarga qadar mol-mulk solig'ini to'lashdan ozod etiladi;</li> <li>- to'qimachilik, tikuv-trikotaj, charm-poyabzal va mo'ynachilik sohalari korxonalarining foyda solig'i bo'yicha soliqqa tortiladigan bazasi 7 yil davomida teng ulushlarda zamonaviy tozalash va kanalizatsiya inshootlarini qurish bo'yicha xarajatlar summasiga kamaytiriladi;</li> <li>- chorva mollarini so'yish bo'yicha zamonaviy avtomatlashtirilgan majmualarni ishga tushirayotgan tashkilotlar va terini qayta ishlovchi korxonalar 2023 yil 1 yanvarga qadar yer solig'i to'lashdan ozod etiladi.</li> </ul>
E - Iqtisodiy omili	Korxonada 2020 yilda davri boshiga jami foyda 4000 ming so'mni tashkil qilgan bo'lib 2020 yilda davr oxiriga kelib esa 6766 ming so'mni tashkil qilgan, Hisobot davri oxiriga kelib, davr boshiga nisbatan qarasak 69,15% o'sgan. Bunga sabab mahalliy bozorda 30 yil davomida faoliyat yuritayotganligi, shahar atrofida korxona savdo uylarining mavjudligidir.
S - Ijtimoiy omili	Tikuvchilik xizmatlar yo'nalişidagi kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ish bilan ta'minlab kelmoqda (o'rtacha yiliga 10-15ta).
T - Texnik omili	2019 yildan ishlab chiqarish tarmog'ida ishlaydigan firmanın xodimlari uchun tushlik tashkil qilingan. Xodimlar uchun namozxonalar mavjud. Ishlab chiqarish korxonasida 7 ta bo'limdan tashkil topgan savdo magazining mavjudligi mijozlarga to'g'ridan to'g'ri mahsulotlarni arzon va qulay miqdorda sotib olish imkonini yaratadi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib shuni ayta olishimizki, har bir korxona, firmaning rivojlanishi va o'zini o'zi ta'minlay olishini aniqlash uchun uning asosiy qismi bo'lgan moliyaviy holati tahlilini amalga oshirish lozindir. Bugungi kunga qadar moliyaviy tahlilning ahamiyati kam edi. Biz maqolada oilaviy korxonalarda moliyaviy holat ko'rsatkichlarining samaradorligini baholashning innovatsion yo'llaridan foydalandik. Agarda mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar xuddi shunday usullardan foydalansa, kelajakda o'zining rivojlanish tendensiyalarini kuzatishga, xo'jalik va tijorat faoliyatini har tomonlama baholashga muvaffaq bo'ladi. Natijada korxona boshqaruv qarorlarni ishlab chiqarish va tadbirkorlik faoliyatini bir-biriga bog'laydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.V.Vahobov, G'. A. Ibragimov, U. G.Yakubov "Iqtisodiy tahlil va audit" T: 2015y. Darslik.
2. Y. Yergeshev "Iqtisodiy va moliyaviy tahlil" T: 2005y. Darslik.
3. M. Yu. Raximov "Moliyaviy tahlil-2" T.2003y. O'quv qo'llanma.
4. <https://aggregator-mlm.ru/uz/koefficienty-finansovoi-ustoichivosti-osnovnye-finansovye/>
5. <https://aggregator-mlm.ru/uz/koefficient-finansovoi-ustoichivosti-normativnoe-znachenie/>
6. <https://www.lex.uz/ru/docs/-2004956?otherlang=1>
7. <https://mintrans.uz/news/prezident-tomonidan-transport-togrisida-gi-qonun-imzolandi>
8. <https://www.biznesrivoj.uz/articles/pest-tahlili-nima-uni-o-rganis>
9. "Logistic mobile" oilaviy korxonasi hisobot hujjatlari.
10. "Komfort tekstil" oilaviy korxonasi hisobot hujjatlari.

<b>Л.Навруз-зада, Ф.Сайдова, М.Раджабова</b> <b>Инновационные способы оценки эффективности финансового состояния на семейных предприятиях</b>	<b>L.Navruz-zada, F.Saidova, M.Radjabova.</b> <b>Innovative methods for evaluating the efficiency of the financial condition in family enterprises</b>
<b>Аннотация:</b> В статье анализируются способы выявления семейного бизнеса и некоторые показатели, отражающие их финансовое состояние. Показаны показатели финансовой устойчивости семейного бизнеса, коэффициент автономии,	<b>Abstract:</b> The article analyzes ways to identify family businesses and some indicators reflecting their financial condition. Indicators of the financial stability of the family business, the autonomy ratio, the financial stability ratio,

коэффициент финансовой устойчивости, способы определения коэффициентов личного капитала по понятным формулам, таблицам.

**Ключевые слова:** Семейный бизнес, показатели финансовой устойчивости, коэффициент автономии, коэффициент финансовой устойчивости, коэффициент личного капитала, SWOT-анализ, PEST-анализ.

methods of determining the personal capital ratios according to clear formulas and tables are shown.

**Keywords:** family business, financial stability indicators, autonomy coefficient, financial stability coefficient, personal capital coefficient, SWOT analysis, PEST analysis.

Д.Р.Махмудова – СамИСИ таянч докторанти

## ТАДБИРКОРЛИКНИ ИЛМИЙ АНГЛАШ ХУСУСИДА АЙРИМ ФИКР-МУЛОҲАЗАЛАР (хориж олимларининг тадқиқотлари асосида) (1-мақола)

**Аннотация:** Мақолада тадбиркорлик, тадбиркор тушунчаларининг моҳияти ва уларнинг эмпирик ривожланиш босқичлари таҳлил қилинган. Хориж олимларининг илмий-назарий тадқиқотлари чуқур ўрганилган. Ривожланиш даражалари бўйича тадбиркорликнинг уч босқичли таснифи таклиф қилинган.

**Калит сўзлар:** кичик бизнес, бошқарув, тадбиркорлик, бизнес, тадбиркор, бизнесмен, тадбиркор таваккалчилиги, интрапренерлик, стартап, юқори инновацион тадбиркорлик, ананавий тадбиркорлик, агрессив тадбиркорлик, ракамли иқтисодиёт.

**Кириши.** Инсониятнинг бутун ривожланиш тарихи қадимги даврлардан бошланиб, ишлаб чиқариш, айирбошлиш ва хизмат кўрсатиш каби йўналишлар ҳамда бирламчи ҳаётий эҳтиёжларни қондириш билан чекланган. Кейинчалик онгли меҳнатнинг пайдо бўлиши ва инсон тафаккури тараққиёти билан, улар йўналишлардан, тармоқлар ва соҳаларга такомиллашиб, бу соҳаларни илмий асослаш орқали турли қарашлар юзага келган. Айниқса, ҳозирги кунда иқтисодиётни ривожлантиришда катта аҳамиятга эга бўлган тадбиркорлик ва бизнес бутун жаҳон миқёсида муҳим омилга айланди. Иқтисодий тараққиёт бевосита тадбиркорлик билан боғлиқ. Шу сабабли, олимлар илмий-назарий тадқиқотларида, “тадбиркор”, “тадбиркорлик”, “бизнесмен” ва “бизнес” тушунчаларининг моҳиятини тадқиқ этишга жиддий эътибор қаратмоқдалар. Чунки ушбу тушунчаларнинг асл моҳиятини аниқламасдан туриб, унинг бошқарувини такомилластиришга эришиб бўлмайди. Мазкур мақолада илмий-назарий изланишлар ва тадқиқотлар замирида айнан тадбиркор ва тадбиркорлик, бизнесмен ҳамда бизнес тушунчалари кичик бизнес бошқарувини такомилластиришда муҳим рол ўйнайди. Шу сабабли уларга атрофлича тўхталиб ўтишни лозим деб топдик.

**Мавзу бўйича адабиётлар таҳлили.** Назарий изланишлар шуни кўрсатдиги, “тадбиркорлик” тушунчасининг моҳияти узоқ йиллардан бери кўплаб хориж олимлари томонидан илмий жиҳатдан ўрганилган. Булар жумласига А.Смит, М.Вебер, Ж.Шумпетер, Л.Ф.Мизес, Ф.Хайек, П.Ф. Друкер, И.Кирцнер, А.В.Бусыгин, А.И.Агеев, М.Г.Лапуст, С.Шимиллов, Б.А.Лешенко, П.А.Гурьянов, А.А.Дынкин, Я.С.Ядгаров, А.В.Кирилловларни<sup>1</sup> киритиш мумкин.

<sup>1</sup> Смит А. Исследование о природа и причинах богатства народов (пер. с англ.; предисл. В.С. Афанасьева). – М.: Эксмо, 2007. – 960.; Макс Вебер. Хозяйство и общество: очерки понимающей социологии: в 4 т. (пер. с нем.); сост., общ. ред. и предисл. Л.Г. Ионина; Нац. исслед. ун-т «Высшая школа экономики». – М. : Изд. дом Высшей школы экономики, 2016. 447с.; Шумпетер Й. А. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия / (предисл. В.С. Автономова; пер. с нем. В.С. Автономова, М.С. Любского, А.Ю. Чепуренко ; пер. с англ. В.С. Автономова, Ю.В. Автономова, Л.А. Громовой, К.Б. Козловой, Е.И. Николаенко, И.М. Осадчей, И.С. Семененко, Э.Г. Солаева). – М. : Эксмо, 2008.-864 с. – (Антология экономической мысли).; Мизес Л. Человеческая деятельность: трактат по экономической теории /пер. с 3-го испр. англ. изд. А. В. Куряева. — Челябинск: Социум, 2005. - 878 с.; Фридрих Август Фон Хайек – Индивидуализм и экономический порядок (1948) Изложение доклада, которым открылась дискуссия по обозначенной в его заголовке теме на конференции в Мон-Пелерин, Швейцария, в апреле 1947 г. 85 с.; Друкер П.Ф. Практика менеджмента: Пер. с англ. М.: Вильямс, 2000. 206 с.; Бусыгин А. В. Предпринимательство. Основной курс. Ч. 1. М.: Фирма «Интерпракс», 1994. С.73.; Кирцнер И. Конкуренция и предпринимательство. Перевод с английского под 122

**Тадқиқот методологияси.** Тадқиқотда индукция, дедукция, илмий абстракция, диалектика ёндашув, умумлаштириш усулларидан кенг фойдаланилди.

**Таҳлил ва натижалар.** Хорижий адабиётларда тадбиркорлик нима ва ким тадбиркор эканлигини аниқлаш бўйича кўплаб олимлар назарий қарашларини келтирган бўлсалар-да, аммо ҳозирга қадар ягона мукаммал таъриф ишлаб чиқилмаган. Америкалик олим П. Друкер бу ҳақда - “Ж.Б. Сей ушбу атамани муомалага киритгандан бери кўп йиллар ўтди ва биз ҳали ҳам “тадбиркор” ва “тадиркорлик” таърифлари ҳақида бош қотиришни давом эттирмоқдамиз”<sup>1</sup> деб таъкидлайди.

Тадбиркорлик атамаси XVII асрда француз иқтисодчиси Ричард Кантителён (1680-1734) томонидан киритилиб, унинг асосий ютуғи шундаки, бу тушунчани биринчилардан бўлиб илмий асослади ва бу хусусида қуйидаги фикрларини келтирди: “Тадбиркор аввало воситачи-дир, у ишлаб чиқарувчилар ва истеъмолчилар ўртасида бозорнинг бўғинидир”<sup>2</sup>. Француз иқтисодчиси Франсуа Куенсай (1694-1774) эса биринчилардан бўлиб тадбиркорлик нафақат воситачи, балки бизнес эгаси ҳам бўлиши мумкинлигини айтиб ўтди. Шу ёндашувдан сўнг тадбиркорлик ва бизнес тушунчалари ўртасида фарқларни аниқлаш олимлар эътиборининг марказида бўлди.

Дастлаб, XVIII асрда “бизнесмен” сўзи Англияда пайдо бўлиб, у “мулк эгаси” маъносини билдирган. Бу хусусида замонавий иқтисодиёт назариясини фан сифатида шакллантирган асосчилардан бири шотландиялик иқтисодчи Адам Смит (1723-1790) тадбиркорлик назариясини ривожлантиришга катта ҳисса қўшиб, “тадбиркор-бу ўзининг тижорат гоясини амалга ошириш ва натижада тадбиркорлик даромадини олишни мақсад қилган, таваккал қилишга тайёр бўлган капитал эгаси”<sup>3</sup> яъни мулк эгаси сифатида таърифлаган. Француз иқтисодчиси Жан Батист Сей (1767-1832) тадбиркорлик ҳодисаси-ни чукур таҳлил қилган холда, олим асосий эътиборини капитал даромад ва тадбиркорлик даромадига қаратди. Ж.Б. Сей томонидан келтирилган тадбиркорлик даромадида “унинг саноат қобилияти, истеъоди, фаолияти, тартиб ва етакчилик руҳи учун мукофот”<sup>4</sup> сифатида ифодалаган.

Демак, ушбу тадқиқотчининг фикри бўйича, саноат тадбиркори тадбиркорликда бирламчи ўринни эгаллайди. А.Смит ва бошқа бир қатор олимлар учун эса қишлоқ хўжалиги соҳасидаги тадбиркорлик биринчи ўринда турган<sup>5</sup>. Юқорида келтирилган олимларнинг фикрлари айнан иқтисодиётнинг шу босқичида бўлганлиги сабабли, бу тушунчага реал ҳолат нуқтаи назаридан ёндашишган. Иккинчи босқич XVIII асрда вужудга келиб – саноат (машинасозлик меҳнати) ривожланиш даврини бошлаган ва Ж.Сей қарашлари айнан шу босқичга йўналтирилган. Кейинчалик иқтисодиёт ривожланишининг бошқа босқичлари такомиллашуви билан тадбиркорлик атамасига чет эл ва маҳаллий олимлар янада кенгрок, мазмунан бой таърифлар келтирганлар.

Немис жамиятшуноси М.Вебер(1864-1920) “тадбиркорлик - бу даромад олишга қартилган иқтисодий ҳаракатлар, аммо ҳар қандай ҳаракатлар эмас, балки фақат капитални ҳисоб-

ред. доктора экономических наук, профессора А.Н. Романова. ЮНИТИ Москва 2001. 239; Бусигин А. В. Предпринимательство. Основной курс. Ч. 1. М.: Фирма «Интерпракс», 1994. 73 с.; Агеев А.И. Предпринимательство. 4-е издание, расширенное и дополненное. Москва Институт экономических стратегий РУБИН 2016. 38.; Лапуст М.Г. Предпринимательство. 4-е изд., испр. И доп. – М.: ИНФРА-М, 2007.; Шимилов С. Стратегия современного предпринимательства и социального развития корпораций / Под ред. М.Н. Кулапова – М.: издательско-торговая корпорация «Дашков и К°», 2004 С.; Лешенко Б.А., Матмуродов Ф.М., Бекбасова А.А. Тадбиркорлик фаолиятини бошқариш асослари. Ўқув қўлланма. Тошкент-2004 й.104-10 б.; Гурьянов П.А. О предпринимательстве // Современные научные исследования и инновации. 2011. №3 электронный ресурс: URL: <https://web.snauka.ru/issues/2011/07/1453>; Дынкин А.А., Стерлин А.Р., Тулин И.В. и др. Предприниматель в конце XX века. –М.: Наука, 1992.; Ядгаров Я.С. История экономических учений: Учебник. 4-е изд.,перераб. и доп.–М.: ИНФРА-М, 2006.148 с.; Кириллов А. В. Международный опыт развития малого и среднего инновационного предпринимательства и возможности его применения в российской экономике. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук Москва - 2015 – 167 с.

<sup>1</sup> Друкер П.Ф. Рынок: как выйти в лидеры. Практика и принципы – М., 1992. 30-31 с.

<sup>2</sup> Grebel T. Entrepreneurship: a new perspective – N.Y., Routledge, 2004. 5 р.

<sup>3</sup> Лапуст М.Г. Предпринимательство. 4-е изд., испр. И доп. – М.: ИНФРА-М, 2007. 6 с.

<sup>4</sup> Ядгаров Я.С. История экономических учений: Учебник. 4-е изд.,перераб. и доп.–М.: ИНФРА-М, 2006.148 с.

<sup>5</sup> Лапуст М.Г. Предпринимательство. 4-е изд., испр. И доп. – М.: ИНФРА-М, 2007. 6 с. .